

## O'ZBEK XALQ KITOBLARI TADQIQOTCHISI

Oqbutayev Botir Xaydarovich

Termiz davlat universiteti oqituvchisi

Ozbekiston, Termiz

e-mail: [oqbutayevbotir7575@mail.ru](mailto:oqbutayevbotir7575@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236833>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada filologiya fanlari nomzodi, dotsent H. S. Oqbo'taevning o'zbek adabiyotining ko'pmingyillik tarixida xalq og'zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyot asarlarini ijodiy qayta ishlash asosida vujudga kelgan xalq kitoblari, ularning tasnifi, poetikasi, variantlari, litografik nusxalari hamda xalq kitoblarida avtorlik masalasiga oid qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, olimning tarjimai holi va A. Navoiy, O. Miriy, Hamza, S. Ayniy, Oybek, Sh. Sa'dulla kabi o'zbek adiblarining ijodi va o'zbek xalq og'zaki ijodi, "Alpomish" dostoni, "Tohir va Zuhra", "Qissai Sanobar" kabi xalq kitoblari hamda Fozil shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Xushboq Mardonakulov kabi xalq ijodkorlarining repertuarlariga bag'ishlangan tadqiqotlari hamda badiiy ijod bilan ham shug'ullanib, Respublika va viloyat matbuotida o'zining topishmoq, lapar, she'rлari bilan ishtirok etib Xalqiy taxallusi bilan ijod qilgani haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit sozlar:** o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyot, xalq kitoblari, mif, afsonalar, qahramonlik eposi, qo'shiq, lirkik she'r, folkloristika va adabiyotshunoslik, xalq kitoblari, ularning tasnifi, poetikasi, variantlari, litografik nusxalari, muallifi ma'lum va muallifi noma'lum xalq kitoblari.

## UZBEK FOLK BOOK RESEARCHER

**Abstract.** In this article, Philologie candidate, Associate Professor H.S. In the multi-thousand-year history of Uzbek literature, Oqbotaev's views on the issue of author (Author) like were analyzed in folk books, their classification, poetics, variants, lithographic copies, and folk books, which arose on the basis of creative processing of folk oral creativity (folklore) and written works of literature. Also, the scientist A. Navoi, O. Miry, Hamza, S. Ayniy, Aybek, Sh. Sadulla the works of Uzbek ADIBS such as 'dulla and Uzbek folk oral creativity, the epic "Alpomish", folk books such as "Tohir and Zuhra", "Qissai Sanobar", as well as research devoted to the repertoire of folk creators such as Fozil poet, Ergash Jumanbulbul son, Khush Mardonakulov, as well as artistic creation, were also noted in the Republican and regional press.

**Keywords:** uzbek literature, folk oral fiction (folklore) and written literature, folk books, myths, legends, heroic epic, song, lyric poetry, folkloristics and literary studies, folk books, their classification, poetics, variants, lithographic copies, known author and unknown author folk books.

## ИССЛЕДОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ КНИГИ

**Аннотация.** В этой статье, кандидат филологических наук, доцент Х.С.Акбутаев многотысячелетняя история узбекской литературы, взгляды Акбутаева на проблему авторского лика были проанализированы в народных книгах, их классификации, поэтике, вариантах, литографских копиях и народных книгах, которые возникли на основе творческой обработки народного устного творчества (фольклора) и письменных произведений литературы. Также учёные А. Навои, О. Мирзы, Хамза, С. Айний, Айбек, Ш. Саъдулла произведения узбекских адивов, узбекское народное устное творчество, эпос

"Алномиши", народные книги, такие как "Тохир и Зухра", "Кисай Санобар", а также исследования, посвященные репертуару фольклорных творцов, таких как поэт Фозил, сын Эргаша Джуманбулбула, Хушвак Мардонакулов, а также художественному творчеству, также были отмечены в республиканской и региональной прессе.

**Ключевые слова:** узбекская литература, народное устное творчество (фольклор) и письменная литература, народные книги, мифы, легенды, героический эпос, песня, лирическая поэзия, фольклористика и литературоведение, народные книги, их классификация, поэтика, варианты, литографические копии, народные книги известного автора и неизвестного автора.

O'zbek adabiyotining ko'pmingyillik tarixida xalq og'zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyot asarlarini ijodiy qayta ishlash asosida vujudga kelgan xalq kitoblarining salmoqli o'rni bor. Insoniyatning eng qadimgi zamonlarga oid og'zaki adabiyot yodgorliklari - mif, afsonalar, qahramonlik eposi, qo'shiq, lirik she'r shakllida shakllanib, asrlar osha yozma adabiyotning vujudga kelishiga, uning taraqqiyotiga boy ma'naviy-badiiy manba, asos vazifasini bajaradi va o'z navbatida, yozma adabiyot ham xalq og'zaki ijodi(folklor)ning takomiliga samarali ta'sir etadi.

Xalq kitoblari mana shu jarayonda, ya'ni, folkloristika va adabiyotshunoslikning o'zaro aloqlari, munosabatlari jarayonida paydo bo'ladi. Bu mavzudagi tadqiqotlarda "og'zaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga chambarchas bog'lovchi" [1-32]hamda " Folklor asari ijodiy qayta ishlanib kitobat qilinib ekan, unga yozma adabiyotning ayrim tendentsiya va xususiyatlari singib boradi, xuddi shuningdek, yozma adabiyot asari ham folklorga xos xususiyatlarga ega bo'lib, "xalq kitobi" tusini oladi"- deya ta'kidlanadi. [2-254]

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har bir xalq adabiyoti boshqa bir qator xalqlar bilan madaniy aloqada bo'lgan holda, o'ziga xos milliy adabiy-estetik tafakkur asosida shakllanadi, ravnaq topadi, umumjahoniya ahamiyat kasb etadi. Bashariyatning asrlar davomidagi bunday madaniy aloqlari o'zbek xalq kitoblarida ham ko'rindi. Jumladan, "Kalila va Dimna", "To'tinoma", "Kitobi Jamshid", "Rustami Doston" kabi o'zbek xalq kitoblariga hind, arab, fors-tojik adabiyoti ta'siri masalalari misolida ham sezish mumkin. O'zbek xalq kitoblarining yaratilishi, takomili, janr xususiyatlari, kompozitsion qurilishi, g'oyaviy mundarijasi,obrazlar tizimi va uslubi, badiiy - estetik, tarixiy ahamiyatini ilmiy tadqiq qilish XX asr boshlarida boshlangan hamda qator fundamental ilmiy tadqiqotlar qilingan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham bu borada o'z ilmiy tadqiqini kutayotgan masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda o'zbek mumtoz adabiyoti fanining bilimdoni, fil.fan.doktori, professor N.M.Mallaevning quyidagi fikrlari bugungi o'zbek adabiyotshunosligi va bir qator ijtimoiy-gumanitar soha fanlari uchun ham muhim masaladir:

"Ayrim dastlabki izlanish va urinishlarni hisobga olmaganda, o'zbek xalq kitoblari o'rganilmagan katta qo'riq bo'lib kelmoqda. Ilk odimlar xalq kitoblarini to'plash, ularni tekstologik va filologik jihatdan tadqiq etish va keng kitobxonlar jamoatchiligiga taqdim etish zaruriyatini yana bir bor ta'kidlamoqda. Odatan, "qissa" deb yuritilgan xalq kitoblari tarix, etnografiya, san'atshunoslik kabi fanlar uchun ham qimmatli manbadir. Afsuski, bu manba shu sohalarning mutaxassislari e'tiboridan chetda qolib kelmoqda ".[3-345]

O'zbekistonda xalq kitoblarini o'rganish, ular haqida ilmiy tadqiqotlar qilish XX asr ikkinchi yarmida boshlandi va bu sohada dastlabki ilmiy tadqiqotlar sifatida R. Majidov va H. Oqbo'taevlar tomonidan yoqlangan nomzodlik ilmiy tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.[4-5]

O'zbek xalq kitoblarining tadqiqotchilaridan biri, folklorshunos olim, fil. fan. nomzodi, dotsent Haydar Oqbo'taev 1942 yil 4 iyunda O'zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on (hozirda Qumqo'rg'on) tumanidagi "Ochamoyli" qishlog'ida tug'ilgan. U 1960 yili o'rta maktabni faxriy yorliq bilan tugatgan va 1960-61 yillarda Y. Oxunboboev nomli 15- o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. U 1961 yili Buxoro davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti bo'limiga o'qishga kirgan hamda 1962-1964 yillari harbiy xizmatni o'tagan. U harbiy xizmatdan qaytgach, yana o'qishni davom ettirib, 1967 yilda shu bo'limni imtiyozli diplom bilan tamomlagan va shu yili yo'llanma bilan Termiz davlat pedagogika institutiga ishga yuborilgan. U 1969-1972 yillarda Toshkent davlat universitetining O'zbek adabiyoti kafedrasida aspiranturada o'qigan. Haydar Oqbo'taev 1973 yil 4 oktyabrda taniqli olim, fil. fan. doktori, professor G'. Karimov ilmiy rahbarligida "O'zbek xalq kitoblarining g'oyaviy va adabiy xususiyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Uning o'zbek xalq kitoblari mavzuida olib borgan ilmiy ishlari "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p tomlig' kiritilgan.[6-173]

Olimning ko'pgina ishlari A. Navoiy, O. Miriy, Hamza, S. Ayniy, Oybek, Sh. Sa'dulla kabi o'zbek adiblarining ijodi va o'zbek xalq og'zaki ijodi, "Alpomish" dostoni, "Tohir va Zuhra", "Qissai Sanobar" kabi xalq kitoblari hamda Fozil shoир, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Xushboq Mardonaqulov kabi xalq ijodkorlarining repertuarlariga bag'ishlangan. H. Oqbo'taev badiiy ijod bilan ham shug'ullangan, Respublika va viloyat matbuotida o'zining topishmoq, lapar, she'rлari bilan ishtirok etib Xalqiy taxallusi bilan ijod qilgan. U "Sharq xalqlarining og'zaki va yozma adabiyotida "Tohir va Zuhra" syujeti" nomli mavzu ustida doktorlik ilmiy tadqiqot ishi uchun izlanishlar olib borgan. Haydar Oqbo'taev – 1967-2000 yillarda Termiz davlat universitetining O'zbek adabiyoti kafedrasida ishlagan, olimning 40 dan ortiq ilmiy maqolasi Respublika va viloyat matbuotida e'lon qilingan. U 2007 - yil, 29 - sentyabrda vafot etgan. Olimning o'zbek xalq kitoblariga oid tadqiqotlari: "O'zbek xalq kitoblarining tasnifi masalasida"(M. T. Oybek nomidagi Termiz DPI tezislar to'plami, 1972 yil), "O'zbek xalq kitoblarida avtorlik masalasi" (M. T .Oybek nomidagi Termiz DPI tezislar to'plami, 1972 yil), "Turkiston litografiyasida bosilgan kitoblarni tasniflash tajribasidan"(Toshkent DU ilmiy to'plami, 1973 yil), "Xalq kitobi "Tohir va Zuhra" haqida"(Toshkent DU ilmiy to'plami, 1973 yil), "Xalq kitobi "Tohir va Zuhra" poetikasi"("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, №4, 1973 yil), "Xalq kitoblari"("Sharq yulduzi", 1978 yil, №8), "Xalq kitoblariga folbklor v yozma adabiyot ta'siri"(Toshkent DU ilmiy to'plami, 1977 yil), "Xalq kitobi "Tohir va Zuhra"ning variantlari"(Toshkent DU ilmiy to'plami, 1980 yil), "Qissai Sanobar poetikasi haqida"(Toshkent DU ilmiy to'plami, 1981 yil).

Tadqiqotchining o'zbek xalq kitoblari, ularning tasnifi, poetikasi, variantlari, litografik nusxalari hamda xalq kitoblarida muallif(avtor)lik masalasiga oid qarashlari diqqatga molik.

Jumladan, olim xalq kitoblarini o'rganish bilan bog'liq bo'lган murakkab muammolardan biri muallif(avtorlik)lik masalasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'zbek adabiyotida ko'plab muallifi noma'lum (anonim)bo'lган asarlar uchrashi, bunday xususiyatni "Malikai Dilorom", "Malikai Dilnavoz", "Gulfarah", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li Sulton",

“Varaqva Gulshoh”, “Vomiq va Uzro”, “Shohzoda Karam va Asilxon”, “Huriliqo”, “Bo’z yigit”, “Hakim jo’gi”, “Aldarko’sa va kulfatda qolgan yigit”, “Nasriddin Afandi” kabi hajviy(satirik-yumoristik), ishqiy, qahramonlik, fantastik va boshqa mavzulardagi liroepik va nasriy xalq kitoblari misolida ko’rish mumkin. Bu haqda olim yozadi: “Ayrim xalq kitoblarida uning yozilgan joyi, yaratilgan yili, kim tomonidan yozilgani yoki ko’chirilganligi, kim tomonidan bosmaga tayyorlanganligi va nashr qilingan joyi ko’rsatilmaydi. Shu tariqa avtorlari noma’lum bo’lgan anonim asarlar sikli maydonga keladi. Bizningcha, bunday anonim asarlarning yuzaga kelishini quyidagicha izohlash mumkin bo’ladi: xalqchil asar avtorlarini ta’qib ostiga olish, xattotlarning kitobni ko’chirish vaqtida asar avtori nomini ongli ravishda tushirib qoldirishi (chunki xattot va qissaxon biror asarni ko’chirganda yoki kuylaganda unga ijodiy yondashib, turli o’zgartishlar kiritishgan. Natijada, birinchi avtor nomini qo’yishga imkoniyat qolmagan va keyingi avtorlar birinchi avtor nomini va o’z nomini ham qo’yishni lozim topishmaganga o’xshaydi), asarning xattot va qissaxonlar tomonidan batamom qayta ishlanishi va baxshilar tomonidan improvizatsiyaga uchrashi natijasida dastlabki avtor nominining tushib qolishi va boshqa sabablarga ko’ra anonim asarlar yuzaga kelgan.” [7-76]

Shuningdek, u “Qissai Sayfulmuluk” (Majlisiy), “Qissai Yusuf va Zulayho”(Durbek), (Andalib), “Qissai Farhod va Shirin” va “Qissai Layli va Majnun”(Umar Boqiy va Mahzun), “Qissai Gul va Sanobar”(Shaydoiy), “Qissai Bahrom va Gulandom”(Sayqaliy), “Qissai Tohir va Zuhra”(Sayyodiy), “Qissai Yusufbek va Ahmadbek”(Ma’rufiy) va boshqa mualliflari ma’lum bo’lgan xalq kitoblarining ham ulardan ancha farq qiladigan mualliflari noma’lum bo’lgan variantlari ham ko’plab uchrashini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi xalq kitobi “Tohir va Zuhra”ning o’zbek adapbiyotida Sayyodiy va Saadi, turkman adapbiyotida Mulla Nafas muallifi sifatida tilga olinib, ma’lum va mashhur bo’lgan bo’lsa - da, Turkiston litografiyasida nashr qilingan xalq kitoblari orasida “Tohir va Zuhra” nusxalarini ko’zdan kechirganda shoir Sayyodiy, Saadi va Mulla Nafas variantlaridan keskin farq qiluvchi namunalarning borligini, bu asarlar muallifi ma’lum bo’lgan variantlardan ancha farq qilsa-da, birinchi muallif nomini saqlab qolganini qayd etadi. Olimning xalq kitoblariga oid tadqiqotlari, jumladan, xalq kitoblari va mumtoz narsa munosabatlariga oid qarashlari to’g’risida fil. fan. doktori, professor H. Homidiy “Vaholanki, klassik nasrimiz bir tizimda, tadrijiy takomilda o’rgatilishi zarur. To’g’ri, Respublikamiz olimlari bu sohada hozirga qadar birmuncha ishlarni amalga oshirdilar. Olimlarimizdan H. Oqbo’taev, T. Qobulov, R. Majidov, R. Jumaniyozov, I. Ostonaqulov, S. Jamolov, M. Mirzamuhamedova va boshqalar narsa namunalari tahliliga doir tadqiqotlar yaratishgan.” - deya e’tirof etadi.[8-323]

Shu bilan birga, olimning o’zbek xalq og’zaki ijodi, uning janrlari, baxshichilik san’ati haqidagi qarashlari sohaga oid tadqiqotlarda ham e’tirof etilgan.[9-304]

Xalq kitoblari tadqiqotchisi haqida “Og’zaki va yozma adapbiyot munosabatlarini o’rganishda muhim nuqtalardan biri folklor va adapbiyot zaminida yuzaga kelgan qissalar ( “Xalq kitoblari”)ni tadqiq etishdir. Bu muhim masala hamon tekshiruvchilar diqqatidan chetda qolmoqda. Shu nuqtai nazardan V. Abdullayevning “O’zbek adapbiyoti tarixi” darsligidagi mulohazalari, R. Majidovning “Xurshed va Malikai Dilorom”, H. Oqbo’tayevning “Tohir va Zuhra” qissalari materiallari asosidagi kuzatishlari diqqatga sazovordir. ”- deb ta’kidlanadi. [10-39]

Folklorshunos olim H. Oqbo'taev o'zbek xalq og'zaki ijodining boy janrlaridan biri termalar haqida yozar ekan, bu janrning paydo bo'lishi tarixi, termalarning mashhur o'zbek baxshilari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir, Islom shoir, Po'lkan shoir hamda Sherobod dostonchilik maktabining Sherna baxshi, Xoliyor baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Toshmurod baxshi, Mamatraim baxshi, Xushboq Mardonaqul o'g'li, Shoberdi baxshi, Shodmon baxshi, Abdinazar baxshi, Xolli baxshi, Boboraxim baxshi kabi xalq ijodkorlari repertuarlaridagi o'rnini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, Xo'shboq baxshi Mardonaqul o'g'li bisotidagi "Mehmondir", "Dunyosan -dunyo", "Oxir o'tarsan", "Baxshilar", "Do'mbiram", "Qiziriq", "Bu dunyo", "Ustozlar", "Deydilar", "Bilmadim", "Ne deysiz", "Kunlarim" kabi termalari xaqida ma'lumot beradi va termalardan misollar keltiradi:

Do'mbira ohangi ona allasi,  
So'z keladi misli savr jalasi.  
Undan oziq olar ko'ngil qal'asi,  
Jo'sh urib, mavjlanib to'lgan baxshilar. [11-115]

Folklorshunos olimning "Alpomish" dostonining o'rganilishida o'zbek olimlaridan G'ozi Olim Yunusov, Hodi Zaripov, Mansur Abzalov, M. Murodov, N. Karimov, M. Saidov, To'ra Mirzaev, S. Yo'ldosheva, M. Qo'shmoqov, B. Sarimsoqovlarning xizmatlarini e'tirof etadi va "Darhaqiqat, "Alpomish" dostoni nafaqat o'zbeklar orasida, balki, Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan, asrlar davomida baxshilar tomonidan maroq bilan kuylab kelingan. Ularning buyuk ma'naviy mulkiga aylanib ketgan. Bu to'g'rida, A. A. Devaev, A. K. Borovkov, K. Ayimbetov, I. T. Sagitov, N. Davkaraev, A. Karimov, N. U. Ulagashov, A. N. Keriev, A. A. Valitova kabi tatar, qoraqalpoq, qozoq, boshqird, oyrot olimlarining olib borgan ilmiy kuzatishlari diqqatga sazovor." - deydi.[12-83-86]

Xullas, bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy o'zlik, ilmsevarlik, vatanparvarlik, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda fil. fan. nomzodi, dotsent H. Oqbo'taevning o'zbek xalq og'zaki ijodi, uning janrlari, "Alpomish" dostoni, xalq baxshilari, o'zbek xalq kitoblari, ularning tasnifi, poetikasi, variantlari, litografik nusxalari hamda xalq kitoblarida muallif(avtor)lik masalasiga oid qarashlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Abdullaev. V. "O'zbek adabiyoti tarixi". Ikkinci kitob, T-:. 1964 yil. "O'qituvchi", B-32.
2. Mallaev. N. "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti". T-:2015 yil. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi", B-254.
3. Homidiy H. "Ko'hna Sharq darg'alari". T-:1999 yil. "Sharq" nashriyot – matbaa kontserni bosh tahririyati, B-345.
4. Majidov R. "Uzbekkie narodnye knigi i proizvedenie Rizoi "Xurshid i Malikai Dilorom", Avtoreferat, kand, dis., Samarcand, 1971.
5. Akbutaev X. "Ideyno – xudojestvennye osobennosti uzbekskix narodnyx knig", Tashkent, 1974.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. III – tom. T-:1978 yil. "Fan", B-173.

7. Akbutaev X. "Ideyno – xudojestvennye osobennosti uzbekskix narodnyx knig", Tashkent, 1974.
8. Oqbutaev X. "O'zbek xalq kitoblarida avtorlik masalasi". M.T.Oybek nomidagi Termiz DPI tezislar to'plami, 1972 yil, B-76.
9. Homidiy H. "Ko'hna Sharq darg'alari". T-:1999 yil. "Sharq" nashriyot – matbaa kontserni bosh tahririyyati, B-323.
10. Tursunov S. va boshqalar. "O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti". T-: 2014 yil. "Fan va texnologiyalar", B-304.
11. Jiganmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdb0TmYAA AJ&citation\\_for\\_view=fdb0TmYAAAAJ:W7OEEmFMy1HYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdb0TmYAA AJ&citation_for_view=fdb0TmYAAAAJ:W7OEEmFMy1HYC)
12. Imomov K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi", darslik, T-: "O'qituvchi", 1990 yil, B-39.
13. Oqbo'taev. H. S, Bakirov Q. "O'zbek fol'klorida termalar". Termiz davlat universiteti professor - o'qituvchilarning XXVIII – ilmiy-nazariy konferentsiya tezislari. Termiz-1996 yil, B-115.
14. Oqbo'taev. H. S. "Alpomish" dostonining o'rganilish tarixi. Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarning ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. Termiz-1999 yil, B-83-86.